

XALQARO STANDARTLARDA KORXONA TUSHUMLARINING AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFI

NAJMIDDINOV DILSHOD

RAFIDDIN O'G'LI,

O'zMUJF o'qituvchisi,

E-mail: dear246.dn@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-5-pp144-151>

Annotatsiya: Ushbu tezisda xalqaro standartlarda korxona tushumlarining audit ob'ekti sifatidagi tasnifi va tavsifi hamda iqtisodiyotni rivojlantirish, korxonalar faoliyatini takomillashtirish, ularning jahon standartlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishi va o'zlarining tushumlarini oshirishi orqali amalga oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, Tushumlar hisobi, IFRS 15, MXXS.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berilmoqda. Bu esa tadbirkorlarning faoliyatini kengaytirishga va tushumlarining oshishiga olib keladi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlaridan biri bu iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Buning uchun esa korxonalar faoliyatini takomillashtirish, ularni jahon standartlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishi va o'zlarining tushumlarini oshirishi orqali amalga oshirish mumkin.

Tushum ko'rsatkichini to'g'ri hisobga olish va auditni o'tkazish uning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Maxsus adabiyotlarda korxonalarning tushumi mazmuni quyidagicha ifodalangan.

Iqtisodiyot nazariyasi adabiyotlarida tushumga pul tushumlari yoki pul tushumlari sifatida qaralgan bo'lsa, moliyaga bog'liq adabiyotlarda tushum sifatida e'tirof etilgan. Misol uchun, professorlar T.S.Malikov va A.V.Vahobovlarning fikriga ko'ra: "Tushum xarajatlarni moliyalashtirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini davom ettirishni ta'minlovchi bir necha pul mablag'lari fondlariga bo'linadi".¹

Professor Sh.Sh.Shodmonovning fikricha: "Korxonalarning faoliyatiga baho berishda sotilgan mahsulotlarning hajmi, ularga qilingan sarf-xarajatlar va foyda tushunchalaridan keng foydalaniladi. Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar ularning pul tushumlari yoki pul tushumlari deyiladi. Korxona pul tushumlaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. Tovarlarni va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul tushumlariga, undagi qo'shimcha qiymat esa foydaga aylanadi."² Ammo

¹ Ваҳобов А.В, Маликов Т.С. Молия. Дарслик. Т.: Шарқ, 2010, 228-б.

² Шодмонов Ш.Ш, Фафуров У.У. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. Т.: Фан ва технология, 2005, 353-б.

tushumlarni audit ob'yekti sifatida tan olishda korxona tushumlari hisobini olib borishda mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga e'tibor qaratish lozim. Tushumlarni tushum sifatida tan olishda, ularni guruhlarga ajratishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar bo'yicha xalqaro va milliy standartlar muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda shuni aytish lozimki, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasida **tushumlar** va xarajatlar to'langan vaqti va pul kelib tushgan sanadan qat'i nazar, qaysi davrga taalluqli bo'lsa, o'sha hisobot davrida buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq aks ettirilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobining 2-sonli milliy standarti – "Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan tushumlar"da korxona tushumlariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan tushumlar-xo'jalik yurituvchi sub'yektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalari o'z sarmoyalariga badali bilan bog'liq bo'lgan ko'payishlari istisno etganda, o'z sarmoyasi ko'payishiga olib keladigan tushumlar".¹

Korxonalarda tushumlar turli manbalardan shakllanishi mumkin. Shu sababdan ham ularni guruhlarga ajratish, tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda tushumlarini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin. Ularni aynan qaysi jihatini o'rganishimizga qarab guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Tushumlarni korxonalarining xo'jalik faoliyati jixatidan o'rganadigan bo'lsak, ularni asosiy faoliyatdan olingan tushumlar va asosiy bo'lmagan faoliyatdan olingan tushumlarga ajratishimiz mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga muvofiq korxonalarining xo'jalik faoliyati ikki turga bo'linadi:²

Asosiy faoliyat – bu korxonaning bosh maqsadini ifodalovchi, hamda uning ustavida ko'rsatilgan faoliyat turi (yoki faoliyat turlari). Korxonalar asosiy faoliyat turlariga misol qilib ishlab chiqarish, savdo, xizmatlar ko'rsatish, ishlar basharish, qurilish, vositachilik faoliyatlarini keltirishimiz mumkin.

Asosiybo'lmaganfaoliyat–bukorxonaningboshmaqsadibo'libhisoblanmaydigan, shu bilan birga qo'shimcha foyda olish maqsadida, hamda asosiy faoliyat uchun zarurat yuzasidan yuritiladigan faoliyat turi yoki turlari. Bunday faoliyat turlariga investision, moliyaviy, emission, innovasion faoliyatlarni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, Soliq Kodeksining 22-moddasida asosiy faoliyat turiga quyidagicha ta'rif berilgan: **"Asosiy faoliyat turi** — yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiy realizasiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati".³

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizomda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan ularning xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olinadigan tushumlari hisobotda quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha kiritilishi belgilab ko'yilgan:⁴

¹ 2-сон БХМС "Асосий хўжалик фаолиятдан олинган тушумлар". Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги 1998, 28 август.

² Уразов К.Б. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Замонавий педагогик технологияларга асосланган кўргазмали маъруза матнлари тўплами. САМИСИ.: 2014, 21-22 б.

³ Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси, Т.: Адолат, 2019 йил 30 декабрь (кейинги ўзгартириш ва қўшимчалар билан).

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Маҳсулот (иш, хизмат)ларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида" Низомни тасдиқлаш тўғрисидаги қарори, 1999 йил 5 февраль, 54-сон.


- sotishdan olingan sof tushum;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar (operasion tushumlar);
- moliyaviy faoliyatdan olingan tushumlar;
- favqulodda tushumlar.

Bizga ma'lumki, korxona tashkil topayotgan vaqtda korxona ustavini tuzadi va unda uzining asosiy faoliyat turlarini belgilab oladi va shu doirada tovarlar sotadi, ish va xizmatlar ko'rsatadi. Asosiy faoliyatdan olingan tushumlar deganda, korxona ustavida belgilangan asosiy faoliyatdan olingan tushumlar tushuniladi.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlarga korxonaning asosiy vositalari va boshqa aktivlarini sotishdan olingan foyda, o'ndirilgan jarimalar, voz kechilgan kreditorlik qarzlari, o'tgan yillar foydasi, bepul kelib tushgan aktivlar, inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar ko'rinishidagi tushumlar va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Asosiy bo'lmagan faoliyatdan olingan tushumlar deganda bevosita asosiy faoliyatga taalluqli bo'lmagan faoliyat turlaridan olingan tushumlar tushuniladi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan tushumlarga qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari, kredit va qarzlarni berishdan olingan tushumlar, ya'ni royalti, dividendlar va foizlar, ijobiy kurs farqlari ko'rinishidagi tushumlar va boshqalar kiradi.



1-chizma. Dori darmon sotuvchi korxonalarda tushumlarni audit ob'yekti sifatidagi tasnifi

Favquloddagi tushumlar deganda yuz berishi doimiy xarakterga ega bo'lmagan, kutilmagan tasodif va hodisalardan olingan tushumlar tushuniladi. Bularga davlat qonunlarining o'zgarishi, tabiiy ofatlar, revolyusion o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan tushumlar kiradi.

Dori darmon mahsulotlarini sotuvchi korxonalarda tushumlarni audit ob'yekti sifatida ham me'yoriy-huquqiy xujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda quyidagicha guruhlashimiz mumkin (1-chizma):


Dori darmon mahsulotlarini sotuvchi korxonalarda tushumlar auditini o'tkazishda mamlakatimizda amalda bo'lgan buxgalteriya hisobining milliy standartlari amaliy yordam beradi. Buning asosiy sababi shundaki, standartlar orqali tushumlarning aniq turlarini buxgalteriya hisobida qanday hisobga olish to'g'risida xususiy ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Aynan bir korxonada tushumlar hisobini tashkil qilishda korxona hisob siyosati muhim ahamiyatga ega. 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"da hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Hisob siyosati deganda xo'jalik yurituvchi sub'yektning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qabul qiladigan usullarning yig'masi tushuniladi."¹

Auditorlik tekshiruvlarini olib borish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'yektning hisob siyosati xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbarining tegishli tashkiliy-farmoyish hujjatlari (buyruq, farmoyish va boshqalar) bilan rasmiylashtirilganligiga ahamiyat qaratish lozim.

Shuningdek, tushumlar auditini o'tkazishda hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va ularni saqlash muddatlarini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 29-moddasida hujjatlarning saqlanish muddati belgilab qo'yilgan:

"Boshlang'ich hisob hujjatlari, buxgalteriya hisobi registrlari, moliyaviy hisobot va boshqa hisobotlar, shuningdek, buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq boshqa hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar mobaynida, biroq hisobot yilidan keyin kamida besh yil buxgalteriya hisobi sub'yekti tomonidan saqlanadi".

Korxona buxgalteriyasiga kelib tushgan boshlang'ich hujjat ma'lumotlari asosida buxgalter tegishli yozuvlarni to'g'ri amalga oshirilganligi, bunda buxgalter hujjat mazmuniga qarab buxgalteriya o'tkazmasini to'g'ri berganligi o'rganilishi lozim. Buxgalteriya provodkalarini berishda 21-son BHMS "Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" talablariga amal qilishi lozim. Mazkur BHMSda tushumlar hisobini olib borish uchun quyidagi schyotlar rejasi tasdiqlangan (2-chizma):




¹ 1-сон БХМС "Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот", Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 1998 йил 14 август, № 474.

2-chizma. Tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar.

Tushumlarni hisobga olib boruchi schyotlar tranzit schyotlar hisoblanib, hisobot davri oxirida qoldiqqa ega bo'lmaydi hamda mazkur schyotlar passiv schyotlar xarakteriga ega, ya'ni ko'payishi kreditda, kamayishi debetda bo'ladi. Barcha tushumlarni hisobga olib boruvchi tranzit schyotlar hisobot davr oxiriga kelib 9910 "Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluchi schyotlar" \ning kreditiga olib borib yopiladi.

Standartda asosiy faoliyatning tushumlarini hisobga olish uchun quyidagi schyotlar rejasidan foydalanish tavsiya etilgan (3-chizma):



3-chizma. Asosiy faoliyatning tushumlarini hisobga oluvchi schyotlar rejasi

Asosiy faoliyatdan olingan tushumlarning amaldagi standartlar bo'yicha buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha ifodalangan bo'ladi (1-jadval):

1-jadval

Asosiy faoliyatga doir tushumlarni hisobga oluvchi schyotlarning bog'lanishi¹

T/r	Ho'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Jo'natilgan mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar (QQS, aksizlardan tashqari) uchun xaridorlarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga	4010, 4020	9010, 9020, 9030
2	Mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni naqd pulga sotish	5010, 5020	9010, 9020, 9030
3	Korxona xodimiga mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlar (jumladan maxsus kiyimlar) sotildi	4790	9010, 9020, 9030

¹ 21-сон БҲМС "Молиявий-хўжалик фаолиятининг бухгалтерия ҳисоби счётлари режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома", Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 2002 йил 23 октябрь.

4	Dividendlar mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan to'landi	6610	9010, 9020, 9030
5	Vositachilik operatsiyalari bo'yicha komission mukofotlar summasi	4010	9010
6	Mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlar sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga sotildi	4120	9010, 9020, 9030
7	Kechiktirilgan tushumlar summasi ular taalluqli bo'lgan hisobot davri kelganda sotish hajmiga kiritildi	6230	9010, 9020, 9030
8	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	4010
9	Sotishdan va narxdan chegirmalar berish	9050	4010
10	Hisobot davrining oxirida 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi" schyotini yopilishi	9010, 9020	9040
11	Hisobot davrining oxirida 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotini yopilishi	9010, 9020,9030	9050
12	Asosiy (operasion) faoliyatning tushumlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	9010,9020. 9030	9910

Korxonada, hisobot davr mobaynida asosiy faoliyatning boshqa tushumlari ham paydo bo'lishi mumkin. Jumladan, korxonada asosiy vosita yoki boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda ko'rishi, inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar, undirilgan penyalar, kreditorlik qarzlarning hisobdan chiqarilishi va boshqalar hisobiga tushum olish imkoniyati mavjud. 21-son BHMS bilan tasdiqlangan schyotlar rejasida asosiy faoliyatning boshqa tushumlarini hisobga olish bo'yicha quyidagi schyotlar rejasi tasdiqlangan (4-chizma):

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
2. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.
3. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
4. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.
5. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.

6. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 346-351.
7. Ali o'g'li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). – 2022. – T. 10. – №. 6. – C. 30-33.
9. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – T. 12. – C. 5834-5841.
10. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.
11. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.
12. Abdusattarovich M. B. CALCULATING ECONOMIC EFFICIENCY IN THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 1189-1194.
13. Khakimov O. SOCIAL GOALS OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 55-59.
14. Nosirovich A. N. The Methodology of Preparation of Students of Vocational Schools and Colleges for Technical Creative Activity //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 2. – C. 1470-1485.
15. Alimov N., Gulrukh F. Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 38-41.
16. Burkhanovna, K. D., Alisherovich, M. R., & Ugli, N. B. U. (2021). Communication as the main source of personality development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 75-80.
17. Nosirovich, A. N., & Umarovich, N. B. (2022). CYBERSPACE IN THE REAL WORLD. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(10), 410-414.
18. Murotmusayev, K., & Nizomov, B. (2022). Internet tarmog'ida yolg'izlik va psixik jarayonlar. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 457-460.
19. Арзикулов О.А. (2020). Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в узбекистана. Экономика и социум, (4), 157-160.
20. Arzikulov, O. A. (2021). Artificial intelligence to increase the efficiency of small businesses. ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (100), 412-415.
21. Макконелл К., Брю С. Экономикс. Принципы, проблемы и политика (1). М.: Республика, 1992, с. 38
22. Arzikulov, O. A. (2019). The role of small business in developed countries. Экономика и социум, (12), 30-33.
23. Абалкин Л.И. Заметки о российском предпринимательстве. М.: Прогресс-Академия, 1994, с.12

24. Ali o'g'li, Arzikulov Otabek. "Statistical study of direct maintenance of small business activities in the regions" EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER) 10.6 (2022): 30-33.

25. Абдулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва унифаоллаштириш йўллари. Иқт. фан. док. дисс.автореф. Тошкент, 2005, 27-б.

26. Арзикулов, Отабек. «Статистическая оценка экономической активности малого бизнеса в регионах» Экономика и образование 23.1 (2022): 187-192.

27. Najmiddinov Dilshod Rafiddin O'G'Li, Tulboyeva Dinora Zokir Qizi MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR // JMBM. 2022. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/moliya-bozorini-rivojlantirishning-ustuvor-yo-nalishlari-va-unga-oid-yangi-yondashuvlar> (дата обращения: 26.11.2022).